

**O'QUVCHILARDA TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**

Boynazarova Gulbahor O'ktamovna

Farg'ona shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Temperament – odamning individual xatti-harakatlarini ifodalab turuvchi tug‘ma va turg‘un psixofiziologik xususiyatlar yig‘indisi. Temperament tug‘ma va o‘zgarmasdir. Inson qaysi temperament egasi bo‘lsa, umrbod o‘sha temperamentda qoladi.

Kalit so‘zlar: individuallik, temperament, o`qituvchi, ta`lim, tarbiya, ruhiy holat, psixik taraqqiyot, barqarorlik,

KIRISH:

Temperament – odamning individual xatti-harakatlarini ifodalab turuvchi tug‘ma va turg‘un psixofiziologik xususiyatlar yig‘indisi. Temperament tug‘ma va o‘zgarmasdir. Inson qaysi temperament egasi bo‘lsa, umrbod o‘sha temperamentda qoladi. Temperament tafakkur darajasi yoki insoniylik fazilatlariga qarab ham bo‘linmaydi. Shu bois ham barcha temperament vakillari ichida iqtidorli va iqtidorsiz, ilmli va ilmsiz, vijdonli va vijdonsiz kishilarni uchratish mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayoni olib borish tarbiyachi, o‘qituvchi va ota-onalar bolaning individual o‘rganish uchun ularni tashqaridan ko‘proq kuzatishi va o‘yin faoliyatida o‘rganib borishi bilan talab etiladi. Har bir bola xulq-atvori, hatti-harakatlarini kuzatgan holda ularning o‘ziga xos temperamentini ajratib olish lozim bo‘ladi.

Bolalarda temperament tiplarining o‘ziga xos jihatlari uxlaganda, ovqatlanganda, ayniqsa, o‘yin faoliyatida namoyon bo‘ladi. Temperamentning 4 xil tipi bolalarda quyidagicha namoyon bo‘ladi: Xolerik tipidagi bolalar hissiyotining tez qo‘zg‘alishi va uzoq davom etishi, harakatchan va keskinligi bilan farq qiladi. Uning asab faoliyati kuchli, muvozanatsiz, ya’ni tormozlanishga nisbatan qo‘zg‘aluvchanligi ustun turadi. Bu temperamentdagi bola sal narsaga jahli

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

chiqadigan, charchashni bilmaydigan, bo‘lar-bo‘lmas narsaga qiziqadigan, har narsaga aralashaveradigan, tinib-tinchimasligi bilan farqlanadi. Bunday bolalar harakatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarni yaxshi ko‘rishadi, o‘yin va mashg‘ulotlarni o‘zлari tashkil eta oladilar. Boshqa bolalarni ham o‘yinga jalg etib, o‘yindagi asosiy rollarni o‘zi ijro etishga kirishadi. O‘rtoqlari ustidan boshchilik qilish, hatto tarbiyachiga, o‘zidan kattalarga gap o‘rgatib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga harakat qilishadi. Biron eshitgan ertagiga allaqanday to‘qimalarni qo‘shib, ertakning yarmiga kelmasdan o‘zgartirib yuboradi. Sangvinik tipidagi bolalarning asab tizimi kuchli, harakatchan va muvozanatli.

Tashqi ko‘rinishdan ular biroz xoleriklarga o‘xshab ketishadi, biroq ularning farqlari mavjud. Bu tipdagi bola tezda uxbab qoladi va osonlik bilan uyg‘onadi. Ular o‘zgargan sharoitda tezda ko‘nikuvchan bo‘lishadi. Kundalik turmushda belgilangan tartibda istak bilan rioya qiladilar. Bu tipdagi bolalar 3-4 yoshga yetganda begona kishilar bilan bemalol munosabatga kirishib ketadi. Turli sharoitlarda ham o‘ziga o‘rtoq topa oladi va juda faolligi bilan ajralib turadi. Bu faollikni uning tashqi ko‘rinishidan anglab olish mumkin. Yangiliklarni bayon etishga intiladi, hammadan oldin gapirib tugatishga harakat qiladi. Flegmatik bola muvozanatli, biroq sekin harakat qiluvchi, sust asab tizimiga ega. Faoliyatni boshlashdan oldin ham bolada pauza paydo bo‘ladi. Bu faoliyatdagi bolalar, biron holatni uzoq vaqt davom ettirishi mumkin. Bir xildagi yoki takrorlanib turuvchi faoliyat uni zeriktirmaydi va charchatmaydi. Unga notanish bo‘lgan yangi faoliyatni boshlash qiyin. Uning xulqi boshqa bolalardan barqarorligi bilan farqlanadi. Bolada malaka va odatlar uzoq vaqt davomida shakllanadi va shakllangach mustahkam bo‘lib qoladi. Ular sinchkovligi, quntliligi, shuning bilan birga turli vaziyatlarda ishonchliligi bilan ham ajralib turadi. Lekin flegmatik temperamentli bolalarda bo‘shanglik, faollikning sustligi, harakatlar sekinligi va o‘yinlarda sust harakatni kuzatish mumkin. Melanxolik temperamentli bola o‘zining yuqori darajada sezgir, xushyor va qalbining o‘ta darajada nozikligi bilan ajralib turishadi. Ularning ko‘zlaridan arzimagan sabablarga ham yosh oqib ketaveradi, nihoyatda arazkash, sekin yig‘laydi, o‘ziga ishonmaydi, tortinchoq, o‘yin faoliyatida ozgina qiyinchilik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sezsa, o‘zini chetga tortadi. Melanxolik temperamentli bolalar o‘ziga xos jihatlari bilan boshqa temperament bolalaridan ajralib turadi. Masalan, tarbiyachi tomonidan bo‘ladigan qo‘pol ohangdagi munosabat boladagi past darajadagi faollikni namoyon etadi. Bunday paytda bola tarbiyachining so‘ziga e’tibor bermasdan, balki unga faqat tikilib qarab o‘tiradi. Melanxolik temperamentli bolalarda passivlik, tez toliqish, ta’sirchanlik kabi salbiy xususiyatlarni kuzatish bilan birga sezgirlik, mehribonlik, odat va qiziqishlarning barqarorligi kabi ijobiy xususiyatlarni kuzatish mumkin. Yuqoridagi temperamentlarning bolalar psixologiyasiga oid tavsiya berish natijasida ularga individual munosabatda bo‘lishning psixologik asoslariga to‘xtalib o‘tish lozim. Xolerik tipidagi bolani tarbiyalash kattalar tomonidan biroz qiyinchilikka yuz tutadi. Aslida bola asabiy emas, balki u asab qo‘zg‘aluvchanligi bilan farqlanadi. Bu tipdagi bolaga bo‘lgan munosabat murakkab bo‘lib, ularning kuchini ma’lum bir maqsad asosida sarflash kerak. Masalan, oilada ularni ko‘pincha harakatli o‘yinlarga jalg qilish, guruhda qo‘sishma topshiriq berish kerak. Xolerik bolaning asab tizimi juda osonlik bilan qo‘zg‘aladi. Uni tinchlanirish, to‘xtatish yoki uxlatish juda qiyin. Ularga past ovozda, tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lekin munosabatda talabchanlik talab etiladi. Ularga ahloqiy tarbiyani doim singdirib borish, ularni sekin, vazmin, biroz past ovozda gapirishga o‘rgatish, navbat kelganda gapirishni, kattalarning gapiga o‘rinsiz aralashmaslik, muloqotni bo‘lmaslikni tushuntirish foydalidir. Xolerik temperamentli bolalarga jahli tezlikning yomon oqibatlari, nojo‘ya harakatlarning yoqimsizligi haqida suhbatlar, hikoya va rivoyatlar aytib berish lozim bo‘ladi. Doimiy nazorat, tinch, sokin o‘yin va mashg‘ulotlar orqali boladagi tormozlanishni rivojlantirish yoki biroz bo‘lsa-da mustahkamlash mumkin. Sangvinik temperamentli bolalarning faoliyatidagi xulq-atvorga befarq qarash, uning keyingi hayotidagi tiklanishi qiyin bo‘ladigan holatlarni yuzaga keltiradi. Ular bir xil narsa, hodisa va faoliyatdan zerikadi. Masalan, 19 4 yoshli qizcha qo‘g‘irchog‘ini ovqatlantiradi, ko‘ylaklarini yechib cho‘miltiradi, sochlarini taraydi biroq sochiga to‘g‘nog‘ich taqmoqchi bo‘lganda, ko‘zi boshqa narsaga tushadi va qo‘g‘irchoqni tashlab shu tomonga qiziqib ketadi.

Kattalar bunday paytda bolalarga yordamlashib yuborsa, boshlagan ishini

oxirigacha tugatishni talab qilsa, ijobjiy samaraga erishish mumkin. Bunday holat bolaning xarakter xislatiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, bolaga kichik yoshdanoq, o‘rtog‘iga diqqat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lishni, yangi o‘rtoq paydo bo‘lgach, eskisini unutmaslikni o‘rgatib borish lozim. Flegmatik tipidagi bolaning tarbiyasida ba’zida kattalar tomonidan adashish holatlari yuzaga keladi. Bu tipdagi bolalarni sustkashlikda, epchil emaslikda ayblashadi. Ba’zida kattalar bolaga umuman yoqmaydigan tanbehtar berish bilan ovora bo‘lishadi. Bu tanbehtar asab faoliyatining tormozlanishiga olib keladi. Flegmatiklar tinch, sekin harakat talab qiladigan o‘yinlarni yoqtirishadi. Bola uchun bunday o‘yinlar yoqimli bo‘ladi biroq, uning harakati rivojlanmaydi, ta’siri sekin namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi va ota-onalar flegmatiklarni faol bo‘lishga undashlari va chorlashlari lozim bo‘ladi.

Agar faollikka chaqirilmasa, natijada bola dangasaga aylanadi. Bu esa inson hayotidagi eng yomon xislatlardan biridir. Kattalar bolani doim biron faoliyat bilan band qilib qo‘yishlari kerak. Masalan, harakatli o‘yin, rasm chizish, tomosha qilish va hokazo. Melanxolik temperamentli bolalar oliy asab faoliyati sust bolalar bo‘lib, jamoaga qiyinchilik bilan kirishadilar. Bunday temperamentli bolalar maktabgacha ta’lim muassasasiga kelsa, ular doim yig‘laydi. Bolalar bilan o‘ynamay chetda o‘tiradi. Bola jamoaga moslashgunga qadar, unga tarbiyachi tomonidan sharoit yaratish kerak bo‘ladi. Melanxolik bola ma’lum vaqt o‘tgandan keyin mashg‘ulotlarga qiziqib qatnashadigan, o‘z do‘sstlariga ham ega bo‘la boshlaydi. Kuchsiz asab tizimli bolalarning dili juda nozik bo‘ladi. Bolaga qattiq gapirmaslik, o‘ta darajada kuchli talabchanlik qilish, jazolash mumkin emas. Bunday temperamentli bolalar ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular o‘zлari haqida aytilgan so‘zlar ta’sir etib, bunga ishonishadi va uzoq vaqtgacha esda saqlaydi. Bolalarda ma’qul bo‘lmagan yoki qiziq bo‘lmagan ishni bajartirishdan oldin, unda shu ish faoliyatga nisbatan ijobjiy emotsiyalarni hosil qilish lozim.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, xolerik temperamentli bolalarga yakka munosabat ko‘rsatishda bo‘lishda ko‘proq tinch mashg‘uliy o‘yinlarga jalb etish; sangvinik temperamentli bolalarni barqaror, diqqatni bir joyga to‘plashga, sabrli, quntli

bo‘lishga odatlantirish; flegmatik toifadagi bolalarni har doim mumkin qadar ildam va chaqqon harakat qilishga o‘rgatib borish; melanxolik tipidagi bolalarda ko‘proq ishonch hissini uyg‘otish, tortinchoqlikni yo‘qotish, o‘yin va mashg‘ulotlarda rag‘batlantirib borishi lozim bo‘ladi. Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holda bolalarga yakka munosabatda bo‘lish ular bilan o‘yin va mashg‘ulotlarning samarali olib borilishida, ta’lim va tarbiya jarayonining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umumiy psixologiya. (A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan). Toshkent, O‘qituvchi, 1992y.
2. Umumiy psixologiya. E.G‘oziyev Toshkent 2002y.
3. Davletshin M.G. O‘quvchilarda texnik qobiliyatning rivojlanishi. T.: 1991
4. Ziyo.net materiallari